2-bosqich. Asosiy	2. Ekranda portretga qo'yiladigan talablar haqida namoyish qiladi va ularga qisqacha ta'rif beradi (2-ilova).	Ekranga rangtasvir faniga qo'yiladigan talablar haqida namoyishni ko'radi.
	3. Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan ishlash uchun ro'yhat beradi (3-ilova)	3. Mavzu bo'yicha Adabiyotlar bilan tanishadi.
3-bosqich Yakuniy	Darsga yakun yasab, mavzu bo'yicha uyga vazifa beradi	Mavzu bo'yicha uyga vazifa oladilar.

#### **Interyerda ikki vaundan ortiq kishi ishtirokida murakkab kompozitsiya ishlash (Tarixiy mavzuda kompozitsiya tashkil etish) (1-ilova)**

Odam qomati rangtasvirini ishlash eng murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki kiyim ichida turadigan quyoshda qorayib rang olmagan odam terisi juda nozik rang tuslarida bo'ladi. Uni tasvirlash rang-tusini o'xshatib ifodalash ancha qiyindir. Odam gavdasini har xil ko'rinishlarini turli vaziyatlarda aks ettirish inson tanasi tuzilishi, anatomiyasi, o'ziga xos shakl-shamoyilini o'rganishni plastik yechimini topishni taqozo etadi. Shuning uchun chizilayotgan odam keksami, yoshmi gavdasining konstruktiv tuzilishini, avvalo qalamda chizib o'rganilishi kerak. Buning uchun mayda qalam chizmalar, ranglavhalar bajarish, shakl va rang-tus munosabatlarini tahlil qilib o'rganish lozim. Shundan so'ng eng maqbul, chiroyli ko'zga yaxshi tashlanadigan joydan turib tasvirni qog'ozga tushirish boshlanadi. Unda gavdaning satxda joylashishi kompozitsiya tomonlari puxta o'ylab chiziladi. Rangda ishlaganda katta shakl, rang uyg'unligiga ham alohida e'tibor bilan qaralishi, mutanosiblik barcha narsada o'z aksini topishi kerak. Ular esa gavdaning har bir bo'lagi rangi, soya yorug'ligida namoyon etiladi.



Odam gavdasi uning soya va yorug' joylarini yaxlit qilib ham tus, ham rang jihatidan ishlab chiqishdan boshlanib, hajmni ko'rsatishga yordam beruvchi unsurlar yarimsoya va aks shu'lalarni belgilash bilan davom ettiriladi, bunda rang kalloriti ham muvofik tarzda ko'rsatiladi. Ayniqsa gavdaning qorin va bel qismlari rang jihatidan juda murakkab, nozik tovlanishli tusalarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularni "nyuans"lar yordamida ishlash mumkin. Bunda ham tus, ham rang o'zgarishlarning salgina farqi ham hisobga olinadi. Odam tanasi agar kiyim bilantavirlanayotgan bo'lsa, kiyim tana qismlari shakliga monand burmalar xosil qilib turishi hisobga olib ishlanadi. Aks holda uning tagidagi badan sezilmaydi va tana plastikasi buzilib ko'rinadi. Buning uchun avvaldan matolarning kandy burmalanib turishi, natyurmortlar ishlash jarayonlarida ham yaxshi o'zlashtirib olingani qo'l keladi. Gavda tasvirini bajarganda odamning bosh va yuz qismlari bo'yin va boshqa a'zolar bilan birgalikda uzviylikda tasvirlanadi. Shu tomoniga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ularni plastik va qurilish jihatida bog'lab ifoda etish ancha murakkab bo'lib, sa'y-harakatlar talab qiladigan mashg'ulotdir. Inson gavdasini rangtasvirini qay yo'sinda, qanday ko'rinishda ishlamang unda albatta qo'l tasvirning o'rni kattadir. Chunki qo'l harakatlari, turish holati orqali gavda, inson tanasi vaziyatlari, harakatli holatlari yaqqol bo'rtib ko'rinadi. Qo'l yaxshi aks ettirilsa tasvir e'tiborli va to'kis ko'rinish kasb etadi.

Kiyimli portretda qo'l tasviri xatto insonning "ikkinchi yuzi" deb ham atalishi bejiz emas. U orqali inson kayfiyati, uning ichki ruhiy kechinmalari ham bo'rttirib ko'rsatilishi mumkin. Shuning uchun qo'lga ikkinchi portret sifatida qarab, huddi inson yuzini qanday e'tibor bilan ishlansa uni ham shunday diqqat bilan tasvirlamoq kerak. Rangtasvir ishlashning nozik tomonlari ko'p. Ulardan biri turli sirtlarni ifodali tasvirlash masalasidir. Chunki natyurmortda ham, odam tasvirini bajarganda ham chizilayotgan narsalarning moddiy ekanligini ko'rsatish muhim hisoblanadi. Buyumlarning tasvirdagi moddiyligi, qanday ashyodan yasalgani yoki tarkib topgani avvalambor uning soya-yorug'ligini aks ettirish vositasida ko'rsatiladi. Turli materiallardan yasalgan buyumlar sirtining o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanib turadilar. Masalan, tsilindrik shakldagi buyum o'zining soya-yorug'hamda yarimsoya va aks shu'lalarining bir-biriga silliq ko'rinishda o'tishi bilan ajralib turishi bilan xususiyatlidir. Xuddi shunday shakl-shamoyilga ega bulgan shisha idishda esa soya bilan yorug'qismi, yarimsoyalar chegarasi yaxshi sezilmaydi. Uning shaklini fakat yiltirab turgan shu'la (blik) va aks shu'la (refleks)lar bo'rttirib ko'rsatishi mumkin. Metalldan yasalgan buyumlarda ham shunday holatni ko'rishimiz mumkin. Agar narsalarning huddi ana shu xususiyatlarini qalamtasvir yoki rangtasvir yordamida o'xshatib tasvirlasak ularning kandy ashyodan ekanligi (materiali) seziladi. Masalan, metaldan, shishadan, yog'ochdan, gipsdan va hokazo narsalardan tayyorlanganligi tasvirdan bilinib turadi. Narsaning qanday ashyodan ekanligi tasvirning tarxi, rangi, tusining to'q yoki ochligi bilan ham ajralib turadi. Ular naturaga, asliga har tomonlama o'xshatib, mutanosib qilib olingan bo'lsa shunday sifatga ega bo'ladi.





Inson tanasi, boshi, qo'l, oyogi va boshqa a'zolarini tasvirlash paytida ayniqsa kiyim-kechagi, bosh kiyimi va boshqalarni sirti ko'rinishi o'xshab chiqishi uchun ular ham rang, tusi xususiyatlari bilan to'liq aks ettirilishi kerak. Inson tanasini tasvirlash juda murakkab ob'ektdir. Shu sababli u boshqa narsalarga qaraganda alohida mas'uliyat bilan, har-xil texnik imkoniyatlarni qo'llab ishlanadi. Masalan, yuzdagi va badanning boshqa joylari sirtida farqlar bor. Yuz dag'alroq bo'lsa bo'yin va bel qismlari nozik rang tuslarida ko'rinadi, shunga yarasha tasvirlanadi. Har bir ishni kompozitsiyadan boshlash va uning yechimini topish uchun bir necha qoralama va tezkor rangli etyudini bajarish maqsadga muvofiqdir. Bu tayyorgarchilik yaratilajak odam gavdasi kompozitsiyasini tanlab olishga, nisbatlar va rang echimlarining to'g'ri topilishiga yordam beradi. Detallarni ishlab chiqqandan so'ng ular umumlashtiriladi, xarakterli joylari belgilanadi va ortiqcha narsalardan voz kechiladi. Bu bosqichda umumiylik, yaxlitlik va uyg'unlik ustida ish olib boriladi. Odam gavdasini ishlashda detallarning qanday ashyodan ekanligini ifoda etish muhim ahamiyatga ega.

Ishni tugatgach, umumiy rang yechimi saqlanadimi, xarakter topiladimi, gavdaning shakli o'z aksini topgan-topmaganligi diqqat bilan kuzatiladi.

### Mavzu yuzasidan test topshiriqlari (2-ilova)

Jang manzaralarini o'zida aks etiruvchi tasviriy san'at janri.	*botal	Portret	Marina
Biron voqea-xodisani aks ettiruvchi asar nima deb ataladi?	*voqeaband	kompanovka	ijodiy ish
Biror narsaga atrofdagi narsalardan yog'dulanib tushadigan nurning nomi nima?	*refleks	shu'la	klorit
Bo'yoqlarni palitradan tozalab olish yoki ularni qorishtirish uchun foydalaniladigan maxsus kurakchanning nomi nima?	*mastixin	palitra	qoplama
Grafikada nimalardan foydalaniladi?	Qalam, ko'mir, pastel, sangina, suvbuyoq	Qalam, ko'mir, moybuek, suvbuek, tush	Qalam, ko'mir, guash, tush, moybo'yoq

### FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko’rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Savol	“Rangtasvir” faning predmeti va mazmuni to’g’risida nimalarni bilasiz?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko’rsating	
(M) Ko’rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

### **Adabiyotlar ro’yxati (3-ilova):**

1. S.Abdirasilov, N.Tolipov. Rangtasvir darslik. Toshkent.Innovatsiyo-ziyo, 2019
2. Р.Халилов. Живопись издательство. “Навруз”, 2013
3. G’.Abdurahmonov. Kompozitsiya asoslari. Toshkent. “Iqtisod-moliya”, 2008

### **2.Qo’shimcha adabiyotlar:**

4. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). Toshkent, 2002. TDPU
5. Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (2-qism). O’quv qo’llanma, Toshkent., 2003. TDPU
6. Abdirasilov S., Tolipov N. “Rangtasvir” O’quv qo’llanma, Toshkent, 2005. "Bilim"
7. Sultonov X. “Rangtasvir” (grizaylda ishlash) metodik qo’llanma. TDPU rizografida-2014
8. S.Abdirasilov, S.Maxkamova, N.Isaxojiyeva. Tasviriy san’at to’garagi. Toshkent, Sharq 2012
9. S.Abdirasilov, S.Maxkamova. Iste’dod. Toshkent, metodik qo’llanma. TDPU rizografida 2014
10. S.Abdirasilov, N.Tolipov. Rangtasvir “Bilim”, O’MKHTM 2005.
11. B.Barber “Full course of the drawing”, Berselona-2014

### **3.Elektron ta’lim resurslari**

12. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) - Nizomiy nomidagi TDPU portali
13. [www.ZiyoNet.Uz](http://www.ZiyoNet.Uz) - O’zbekiston Ziyonet kutubxonasi bazasi
14. [www.edu.uz](http://www.edu.uz) - O’zbekiston Respublikasi ta’lim portali

### **Mavzu yuzasidan uyga vazifa (4-ilova):**

Qiyofachini qog’ozga kompozitsiya jihatidan to’g’ri joylashtirish. Nisbatlarni to’g’ri aniqlash. Perspektiva qonun-qoidalariga amal qilish. Portretni rangda tushirish Vazifani umumlashtirish va yakunlash.

## **MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI**

Talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy masalalarni echish ko'nikmasini hosil qilish uchun mustaqil talim tizimiga asoslanib mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar.

### **Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:**

1. Geometrik shakllardan natyurmort grizaylda
2. Gips naqshli rozetka ishtirokida natyurmortning rangtasviri (gul bargi va ko'za, mevalardan iborat natyurmort kompozitsiyasi)
3. Murakkab holatdagi turli mato burmalari bilan gular ishtirokida natyurmort
4. Uy-ro'zg'or buyumlari va sabzavotlardan tuzilgan natyurmortning rangtasviri
5. Samovar, choynak, payola va mevalardan tashkil topgan murakkab bo'lmagan natyurmort
6. Hayvon va parrandalarning ranglavhalari
7. Haykaltarosh Mikelanjeloning David haykali boshi bo'laklari bilan natyurmort
8. Inson boshini kesib ishlash usulida ranglavha (etyud) mashq qilish
9. Oq fonda gular va meva-sabzavotlarning qisqa muddatli ranglavhasini bajarish
10. Aniq xarakterga ega bo'lgan bosh namunasining ranglavhasi
11. Inson qomatidan ranglavhalar bajarish
12. O'ziga xos xarakterli xususiyatlarga ega bo'lgan inson portreti ranglavhasi
13. Keksa inson boshining murakkab holatdagi portreti ranglavhasi
14. Yosh bola portreti rangtasviri
15. Mening zamondoshim portreti
16. Avtoportret
17. O'tirgan holatdagi inson qomati kompozitsiyasini tasvirlash
18. Qishloq manzarasi
19. Ikki yoki uch kishi ishtirokida kompozitsiya
20. Bozorlar ranglavhasi
21. Tog' manzarasi
22. Mavzuli murakkab natyurmort

## GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
<b>Shtrixlash</b>	<b>Hatching</b>	<b>Shtrixovka</b>	Tasvirda ishlatiladigan chiziqlar birdamligi yoki bir-biri ustiga yotkizilgan nuqtalar yoki chizmaga tus berishga ishlatiladigan chiziqlar yig'indisi.
<b>Sous</b>	<b>Sauce</b>	<b>Sous</b>	Rasm chizishga mo'ljallangan yumshoq material bo'lib, tarkibi loy, bo'r, elim va rangli kukunlardan iborat. Ular qora, och qoramtir va oq ranglarda bo'ladi.
<b>Kapitel</b>	<b>Capital</b>	<b>Kapitel</b>	( <u>lotincha</u> <i>caput</i> ) - ustun yoki, plyastrni bog'lovchi qism. Kapitel ustundan bo'rtib chiqib, ustunga o'zgacha ko'rk beradi.
<b>Sangina</b>	<b>Sangin</b>	<b>Sangina</b>	( <u>fr.</u> <i>sanguine</i> , <u>lotincha</u> - <i>sanguis</i> ) — rasm chizishga mo'ljallangan qalamcha shaklidagi yumshoq material bo'lib, tarkibi <u>kaolina</u> va <u>temir oksidlaridan</u> iborat.
<b>Tushuvchi soya</b>	<b>Drop shadow</b>	<b>Padayuhaya ten</b>	Yorug'lik manbai bilan bir xil yo'nalishda joylashgan boshqa buyumning nur manбайдan yashirin tomoni maydoni.
<b>Qarash nuqtasi</b>	<b>Observation point</b>	<b>Tochka obzora</b>	Rasm chizuvchining joylashgan o'rni yoki kuzatish nuqtasi
<b>Qarash burchagi</b>	<b>Vision angle</b>	<b>Ugol obzora</b>	Jismning chekka nuqtalariga qarab kuzatuvchidan chiqayotgan nurlar yo'nalishi.
<b>O'z soyasi</b>	<b>Own shadow</b>	<b>Sobstvennaya ten</b>	Predmetning bir tarafi yorug'likda, boshqa tomoni soyada joylashganidagi paydo bo'ladigan soya.
<b>Yorug' -soya</b>	<b>Sheckered light and shade</b>	<b>Svetoten</b>	Biron-bir buyumning soya-yorug'ini aniqlashdagi grafik munosabat.
<b>Ekorshe</b>	<b>Ekorshe</b>	<b>Ekorshe</b>	(frants. <i>Écorché</i> – “shilip olingan” <i>écorce</i> – “jild”) – o'quv jumla, odamning muskullari yuzaga chiqarilgan terisiz qomati
<b>Tuslash</b>	<b>Stump</b>	<b>Rastushovka</b>	Tasvirning aniq bir qismini soya-yorug'ini ko'rsatib berish uchun qo'llaniladigan uslub
<b>Portret</b>	<b>Portrait</b>	<b>Portret</b>	( <b>frants.</b> <i>Portrait</i> - tasvir) – tasviriy san'at janri, bir va undan ortiq odam tasviri




<b>Natyurmort</b>	<b>Still life</b>	<b>Natyurmort</b>	(frantsuzchadan «natyurmort» so'zi "o'lik narsa" degan ma'noni anglatadi). Bu tasviriy san'at janridir. Bu janr asarlarida asosan insonni o'rap turgan buyumlar aksini topadi – ko'zalar, vazalar, oziq-ovqat mahsulotlari, gullar va boshqa maishiy buyamlar shular jumlasidandir. <b>Ijodiy natyurmort</b> – bu rassomning insonni o'rap turgan buyumlar aksini o'z zamoni va makonidagidek qilip tasvirlashi hisoblanadi.
<b>Homaki nusxa</b>	<b>Etude</b>	<b>Etyud</b>	(frantsuzcha «etude» - o'rganish) – hayotdan ishlangan ish. Ko'pincha etyud mustaqil ma'no kasb etadi. Ba'zida u chizuvchining professional malakasini oshirishi bilan bir qatorda olamni chuqurroq va haqqoniy o'rganishga xizmat qiladi. Shu bilan birga etyud ishlanadigan asarga ham yordamchi, ham tayyorlovchi material bo'lib ham xizmat qiladi. Etyud yordamida rassom asar g'oyasini aniqlaydi va mayda qismlariga ishlov beradi.
<b>Grizayl</b>	<b>Grisaille</b>	<b>Grizayl</b>	(frantsuzchadan <i>Grisaille</i> – <i>gris so'zidan «kul rang»</i> ma'nosini anglatadi) – bu rangtasvir turi hisoblanib, bir yoki ikki rangda ishlanadigan, ko'pincha jigarrang yoki kul ranglarda tasvirlanadi hamda bu arxitektura va haykaltaroshlik elementlarini qog'ozga tushirish texnikasi hisoblanadi. Grizaylda buyumning faqat tusi hisobga olinib, rangini esa ahamiyati yo'q.
<b>Abris</b>	<b>Outline</b>	<b>Abris</b>	Hajmning chiziqli shakli
<b>Rakurs</b>	<b>Foreshortening</b>	<b>Rakurs</b>	Buyum shaklining perspektiv qisqarishi vositasida uning doimiy ko'rinishi o'zgarishi; buyumning tepa yoki pastdan qaralgandagi to'satdan berilgan qisqartmalari.
<b>Nisbatlar</b>	<b>Proportions</b>	<b>Proportsii</b>	Buyumlar qismlarining bir-biriga va asosiga bo'lgan o'lochlamlar munosabati
<b>Yarimsoya</b>	<b>Penumbra</b>	<b>Poluten</b>	Hajmli buyumning yuza qismidagi soya-yorug'ning, soya va nurning o'rtasidagi rang birligi
<b>Hajm</b>	<b>Volume</b>	<b>Ob'em</b>	Tasvirning tekislikdagi uch o'lchamli shakli.
<b>Buyum formasi</b>	<b>Shape object</b>	<b>Forma predmeta</b>	Buyum, obekt hamda chiziqlar joylashuvi chegaralarining nisbiy holati
<b>Kompozitsiya (tasviriy san'atda)</b>	<b>Composition (visual arts)</b>	<b>Kompozitsiya (izobrazite-lnom iskuutve)</b>	Bu badiiy shaklni mujassamlashtiradigan, asarga birdamlik va yaxlitlik beruvchi, rassom g'oyasi elementlarini bir-biriga jipslashtiruvchi narsa.




<b>Qoralama</b>	<b>Sketch</b>	<b>Eskiz</b>	Badiiy asar g'oyasini belgilovchi dastlabki chizma.
<b>Peyzaj</b>	<b>Paysage</b>	<b>Peyzaj</b>	( <i>fr. Paysage</i> , pays dan — o'lka, atrof) – tasviriy san'at janri (hamda bu janrning alohida asarlari) bo'lib, tasvirning asosiy buyumi u yoki bu darajada inson tomonidan o'zgartirilgan tabiatdir.
<b>Perspektiva</b>	<b>Perspective</b>	<b>Perspektiva</b>	( <i>fr. perspective</i> , <i>lat. perspicere</i> — orqali ko'rish) – fazoviy ob'ektlarning biron- bir tekislikdagi zoxiriy qisqartirilishiga muvofiq ularning shakli va soya-yorug'ligi o'zgarishini ifoda etuvchi tasvir texnikasi.
<b>Panorama</b>	<b>Panorama</b>	<b>Panorama</b>	Aylana podramnikda ishlanadigan tasmasimon asar.
<b>Mato</b>	<b>Sanvas</b>	<b>Xolst</b>	Rangtasvirda – maxsus ishlov berilgandan so'ng moy bo'yoq yordamida ustiga ishlanadigan qalin zig'ir yoki paxta mato.
<b>Akvarel</b>	<b>Watercolor</b>	<b>Akvarel</b>	( <i>fr. Aquarelle</i> — suvli; <i>ital. acquarello</i> ) – rangtasvir ashyosi bo'lib, maxsus suv bo'yoqlaridan foydalanuvchi, suvda erigan holatida yupqa shaffof suspenziya hosil qilish orqali tasvirga engillik, qulaylik va nozik rang o'tish ta'sirini yaratib beradi.
<b>Guash</b>	<b>Gouache</b>	<b>Guash</b>	( <i>fr. Gouache</i> , <i>ital. guazzo</i> suv bo'yog'i, shovullash ma'nolarini anglatadi) – akvarelga qaraganda qalinroq va xira bo'lib, suvda eriydigan elimli bo'yoqlar turiga kiradi.
<b>Rangtasvir</b>	<b>Painting</b>	<b>Jivopis</b>	Tasviriy san'at turi bo'lib, kuzatuvchining ko'rib turgan yoki hayoliy voqelikni qalin yoki egiluvchan yuzaga bo'yoqlar yordamida tasvir tushiriladigan tushunchadir.
<b>Blik</b>	<b>Hotspot</b>	<b>Blik</b>	Tasvirlanayotgan narsadagi eng yorug' shu'la, qism. Ayniqsa hajmli narsalarning bo'rtirib chiqqan qismlarida shu'la yaqqol ko'rinadi.
<b>Badiiylik</b>	<b>Artistic</b>	<b>Xudojestvenno'y</b>	San'at asarlarining mezoni, o'lchovi.
<b>Interer</b>	<b>Interior</b>	<b>Interer</b>	Bino ichkarisining ko'rinishi bir burchagi, qismi. Interer tasviriy san'atning janri bo'lib binoning ichki ko'rinishlari tasvirlanadi.
<b>Kolorit</b>	<b>Coloring</b>	<b>Kolorit</b>	Badiiy asar mazmunini tushunarli bo'lishida ranglar nisbatidan foydalanish, badiiy asarlardagi ranglarning umumiy tusi, tuzilishi.

<b>Refleks</b>	<b>Reflection</b>	<b>Refleks</b>	narsaning shaxsiy va tushuvchi soyasidagi aks shu'lasini, u tevarak atrofdagi narsalarni ta'siri natijasida sodir bo'ladi.
<b>Fon</b>	<b>Background</b>	<b>Fon</b>	fon, zamin, tag; (ko'm-ko'k osmon fonida, rangli mato fonida) suratlarda eng oxirigi orqa plan rangini bildiruvchi ibora.
<b>Koloristika</b>	<b>Colouristic</b>	<b>Koloristika</b>	rang haqidagi fan bo'lib, ranglar tabiati, asosiy, tarkibiy (tashkil etuvchi) va qo'shimcha ranglar, ranglarning asosiy xarakteristikalarini, rang kontrastlari, ranglar aralashuvi, kolorit, ranglar uyg'unligi, ranglar tili va ranglar madaniyati haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Ranglar dunyosi qonunlari ranglar bilan do'stlashish yoki do'stlashmaslikni aniqlab beradi.
<b>Yorqinlik</b>	<b>Light Coloured</b>	<b>Svetlo'y</b>	bu yarqirayotgan (yoki nur sochayotgan) jismning xarakteristikasi bo'lib, qandaydir yo'nalishdagi yorug'lik kuchining yarqirayotgan sirtning shu yo'nalishga perpendikulyar bo'lgan tekislikka tushayotgan proektsiyasining (tasvirining yoki aksining) maydoni nisbatiga teng.


ILOVALAR


















ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ



Рўйхатга олинди: № БД-5110800 -3.02,  
2020 йил “14” 08

**РАНГТАСВИР**

**ФАН ДАСТУРИ**

Билим соҳаси: 100000 – Гуманитар  
Таълим соҳаси: 110000 - Педагогика  
Таълим йўналиши: 5110800 – Тасвирий санъат ва муҳандислик  
графикаси

Фан/модуль коди	Ўқув йили 2020-2021	Семестр 1-6	ECTS - Кредитлар 22	
Фан/модуль тури Мажбурий	Таълим тили Ўзбек/рус		Ҳафтадаги дарс соатлари 4	
1.	Фаннинг номи	Аудитория машғулоти (соат)	Мустақил таълим (соат)	Жами юклама (соат)
	Рангасвир	320	340	660
2.	<p><b>I. Фаннинг мазмуни</b></p> <p>Фанни ўқитишдан мақсад- рангасвир барча тасвирий санъат турларининг асоси сифатида келажакда тасвирий санъат ўқитувчисини рангасвир фани назарияси ва амалий кўникмалари билан қуроллантириш, ижодий қобилиятини ўстириш, тасвирий санъатга мос билим, кўникма ва малакаларни шакллантириш, ҳамда педагогик фаолиятга пухта тайёрлашдан иборатдир.</p> <p>Фаннинг вазифаси - бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини бадиий жиҳатдан тарбиялаш, уларнинг бадиий дидларини юксалтириш, тасвирий санъат асарлари билан чуқур таништириш, уларни нафосат борасидаги фикр ва мулоҳазаларини юксалтириш, тасвирий санъат асарларини кўриш ва тушуниш кўникмаларини ҳосил қилишдан иборат. Шунингдек, талабаларга, бўлажак рассом-педагогларга кўриб-кузатиб, таҳлил қилиб тўғри тасвирлаш, атроф-муҳитни, борлиқни идрок этиш, ранг сезиш, рангасвир асарларини яратиш малакаларини шакллантиришдан иборатдир. Реалистик рангасвир ишлаш санъати борлиқни ҳаққоний образларда ифода этиш маҳоратини ривожлантиришни ўз олдига мақсад қилиб қўяди.</p> <p><b>II. Амалий машғулоти буйича кўрсатма ва тавсиялар</b></p> <p>Амалий машғулоти учун қуйидаги мавзулар тавсия этилади:</p> <p><b>1-мавзу. Рангасвир ҳақида тушунча. Реалистик рангасвирнинг мақсад ва вазифалари. Холис фонда 2-3 геометрик жисмдан тузилган содда натюрморт ишлаш (Гризайл).</b></p> <p>Рангасвир ҳақида тушунча. Реалистик рангасвирнинг мақсад ва вазифалари. Шаклни конструктив таҳлил қилиш, рангасвирнинг муҳим хусусияти ва образли ифодалаш воситаси сифатида колоритнинг аҳамиятини ўрганиш. Гризайл техникаси. Ахроматик ва хроматик рангларни ўрганиш. Натюрмортда буюмлар шакли. ҳажми, ёруғлик хусусиятларини бир ҳил рангда тўғри акс эттириш. (Акварель).</p> <p><b>2-мавзу. Гипсли геометрик жисмлардан тузилган натюрмортнинг рангасвирини чекланган рангларда бажариш (Акварель).</b></p> <p>Акварель бўёғи ҳақида тушунча. Чизиқли ва ҳаво перспективаси ҳақида асосий тушунчалар. Чизиқли ва ҳаво перспективасини қўллаган ҳолда шаклни конструктив таҳлил қилиш, рангасвирнинг муҳим хусусияти ва образли ифодалаш воситаси сифатида колоритнинг аҳамиятини ўрганиш. Холис фонда гипсли геометрик жисмлардан тузилган натюрмортни чекланган рангларда тасвирлашни композиция қонуниятлари асосида ўрганиш.</p> <p><b>3-мавзу. Холис фонда оддий шаклдаги уй-рўзгор буюмлардан ташкил топган натюрмортнинг рангасвирини бажариш.</b></p> <p>Композицияни қоғоз юзасида жойлаштиришни ўрганиш. Ёруғ соя жиҳатларини, ранг бериш усулларини ўрганиш. Композициядаги ҳажмдорликни, фазовийликни ифодалаш. Асосий ва қўшимча ранглар ҳақида тушунча. Совуқ тусдаги бўёқлар хусусиятини ҳисобга олиб композицияни акс эттириш. Натюрмортга тушаётган ёруғлик кучини аниқлаш, рангларни тўғри ифода эта олиш. Шакл, ҳажм ва фазовий бўшлиқни ранглар ёрдамида акварелдаги турли техникаларда тасвирлашни ўрганиш.</p>			

**4-мавзу. Қисқа муддатда уй-рўзғор буюмлардан ташкил топган натюрмортнинг рангтасвирини бажариш.**

Ранглавҳа ҳақида тушунчага эга бўлиш ва амалда тезкор рангтасвирлар бажариш. Шаклни конструктив таҳлил қилиш, рангтасвирнинг муҳим хусусияти ва образли ифодалаш воситаси сифатида колоритнинг аҳамиятини ўрганиш. Ёруғ соя жиҳатларини, ранг бериш усулларини ўрганиш. Композициядаги ҳажмдорликни, фазовийликни ифодалаш

**5-мавзу. Контраст фонда турли шаклли ва ҳар ҳил фактуралии буюмлардан тузилган натюрмортнинг рангтасвирини бажариш.**

Рангда жисмларнинг ёруғ - соя жойларини белгилаб, тус жиҳатларини топиш Ёруғ соя жойларига ранг бериш усулларини ўрганиш. Композициядаги ҳажмдорликни, фазовийликни ифодалаш. Контрастлик-тушунчаси ҳақида назарий ва амалий маълумотга эга бўлиш.

**6-мавзу. Контраст рангли жисмлардан ташкил топган мавзули натюрморт ишлаш.**

Рангда композициянинг ёруғ ва соя жойларини белгилаб, тус жиҳатларини топиш. Шаклни конструктив таҳлил қилиш, рангтасвирнинг муҳим хусусияти ва образли ифодалаш воситаси сифатида колоритнинг аҳамиятини ўрганиш. Ёруғ соя жиҳатларини, ранг бериш усулларини ўрганиш. Композициядаги ҳажмдорликни, фазовийликни ифодалаш. Рангтасвирни ташкил этиш, уни ифодалашда ёруғлик, шуъла ва рефлекслар (ранг акси)нинг аҳамиятини ўрганиш

**7-мавзу. Совуқ тусли ранглардан ташкил топган натюрморт рангтасвирини бажариш. (Акварель)**

Иссиқ ва совуқ ранглар ҳақида тушинчага эга бўлиш ва амалда қўллай олиш. Илик ранглар мажмуига бўйсундирган ҳолда натюрморт ифодавийлигига эришиш. Муҳит, ёруғлик манбаини тўғри акс эттириш. ишни яхлит бир тусга бўйсундирган ҳолда яқунлаш

**8-мавзу. Гуашь бўёғида ишлаш техникаси. Совуқ ранглардан ташкил топган Микеланжелонинг Давид хайкали кўз бўлаги иштирокида натюрмортнинг рангтасвири**

Гуашда ишлаш техникаси ҳақида тушунчага эга бўлиш ва ишлай олиш. Ранг ва тус муносабатларини аниқлашни ўрганиш. Гуашь бўёғида Давид кўз бўлагини ишлаш биринчи босқичи. Натюрмортдаги кўза, мева, матолар бурмаларини ишлаш босқичи. Ёруғ, соя, блик, рефлекс, ярим соя, шахсий соя, тушган сояларини ранг орқали ифодалаш. Умумлаштириш. Ёруғликни ҳисобга олган ҳолда ранг ва тусларини топиш орқали ишни методик изчилликда яқунлаш.

**9-мавзу. Декоратив усулда натюрморт ишлашни ўрганиш, ҳар ҳил буюмлардан ташкил топган натюрмортнинг рангтасвири.**

Буюк рассомлар асарлари намуналари билан танишиш. Натюрморт қўйилмасини қоғоз сатҳида тўғри жойлаштириш. Аниқ тушиб турган ёруғлик муҳитини ҳисобга олган ҳолда тасвирлаш. Буюмлар сиртида атрофдаги рангларнинг акс этишини декоратив усулда амалга ошириш, ҳажм, яхлитлик масалаларини ҳал этиш. Мураккаб фонда натюрморт ишлаш, ранг уйғунлиги (колорит) қонуниятларини ўрганиш.

**10-мавзу. Ҳайвонлар ва паррандаларнинг ранглавҳаларини бажариш. (Ҳайвонот боғида).**

Ҳайвонлар ва паррандаларнинг турли ҳолатдаги ранглавҳаларини бажаришни ўрганиш. Ҳайвонлар ва паррандаларнинг ранглавҳаларини тўғри чизиш ва ранг билан ҳажмлиликни таъминлаган ҳолда акс эттириш. Ҳайвон ва қушларнинг анатомияси. Ҳайвонларнинг ҳаракат пластикасини тасвирлашни ўрганиш, олдинги ва орқа оёқлари суякларининг тузилиши, бирикиши ва динамикаси.

**11-мавзу. Маълум ранглар гаммасида (колоритда) нақшли гипс розетка билан қўйилган натюрмортни ишлаш.**



Шаклни конструктив таҳлил қилиш, композицияни тўғри жойлаштириш. Гипс розетка нақшларини тўғри жойлаштириш. рангтасвирнинг муҳим хусусияти ва образли ифодалаш воситаси сифатида колоритнинг аҳамиятини ўрганиш. Яхлит бир бутунликда якунлаш

**12-мавзу. Ёруғликка қарши қўйилган мавзули мураккаб натюрморт композициясини ишлаш. “Санъат атрибутлари” (Гипс бош ёки ниқоб намунаси билан).**

Композиция маркази, симметрия ва ассиметрия ҳақида тушунча. Чизиқли ва ҳаво перспективасини қўллаган ҳолда қоғоз юзасида конструктив қурилишини жойлаштириш. Турли шакл ва фактурали уй-рўзғор буюмларини бир бирига нисбати, ҳажми, хоссасига, материалга қараб буюмнинг ўзига хос жиҳатларини ранг орқали кўрсатиш Композицияни тўғри жойлаштириш, фазовийликка эътибор бериш. Ёруғ ва соя муносабатлари, рангларнинг ўзаро боғлиқлиги ва қарама-қаршилиги хусусиятларини ўрганиш. Композициядаги ҳажмдорликни, фазовийликни ифодалаш, умумлаштириш, якунлаш.

**13-мавзу. Интерьер кўринишини тасвирлаш**

(Очиқ эшик ёки деразадан кўришиб турган натюрморт бўлаги тасвири). Композицияни тўғри жойлаштириш, перспективани ифодалашга эътибор бериш. Рангда композициянинг ёруғ ва соя жойларини белгилаб, тус жиҳатларини топиш. Чизиқли ва фазовий перспектива қонуниятларини ўрганиш. Композициядаги ҳажмдорликни, фазовийликни ифодалаш якунлаш

**14-мавзу. Оқ фонда ҳар хил рангли мевалардан тузилган натюрморт ишлаш.**

Буюк рассомлар асарлари намуналари билан танишиш. Натюрморт қўйилмасини қоғоз сатҳида тўғри жойлаштириш, аниқ тушиб турган ёруғлик муҳитини ҳисобга олган ҳолда тасвирлаш. Буюмлар сиртида атрофдаги рангларнинг акс этиши, ҳажм, яхлитлик масалаларини ҳал этиш. Асл нусхага ўхшашлигини таъминлаш, умумлаштириш, якунлаш

**15-мавзу. Ранги бир хил, турли тусдаги буюмлардан тузилган натюрморт композициясини контраст фонда ишлаш.**

Ранг ва тус муносабатларини аниқлашни ўрганиш. Композиция маркази, симметрия ва ассиметрия ҳақида тушунча. Чизиқли ва ҳаво перспективасини қўллаган ҳолда қоғоз юзасида конструктив қурилишини, жойлаштириш Турли шакл ва фактурали уй-рўзғор буюмларини бир бирига нисбати, ҳажми, хоссасига, материалга қараб буюмнинг ўзига хос жиҳатларини ранг орқали кўрсатиш Композицияни тўғри жойлаштириш, конструктив қуриш Рангда жисмларнинг ёруғ ва соя жойларини белгилаб, тус жиҳатларини топиш Ёруғликни ҳисобга олган ҳолда ранг ва тусларини топиш, ишни методик изчилликда якунлаш.

**16-мавзу.Мураккаб бўлмаган натюрморт композициясини мойбўёкда ишлаш. (Гризайль).**

Гризайль техникаси. Ахроматик ва хроматик рангларни ўрганиш.Ранг доираси. Мато ёки картонда мойбўёкда ишлаш техникасини ўрганиш. Ишни бир хил рангда бошлаш. Тус жиҳатларини аниқлаш Натюрмортда буюмлар шакли. ҳажми, ёруғлик хусусиятларини бир хил рангда тўғри акс эттириш. Ёруғ соя жиҳатларини, ранг бериш усулларини ўрганиш Композициядаги ҳажмдорликни, фазовийликни ифодалаш

**17-мавзу. Илиқ тусланишга эга бўлган контраст рангли буюмлардан тузилган натюрмортни чекланган рангларда ишлаш. (Мойбўёк).**

Рассом палитраси. Ранг аралаштириш технологияси. Колорит, илиқ ва совуқ ранглар ҳақида тушунчага эга бўлиш. Ранг иқлими. Илиқ ранглар мажмуига бўйсундирган ҳолда натюрморт ифодавийлигига эришиш. Муҳит, ёруғлик манбаини тўғри акс эттириш. ишни яхлит бир тусга бўйсундирган ҳолда якунлаш.

**18-мавзу. Совуқ тусланишга эга бўлган мураккаб натюрморт композицияси ишлаш.**



Асосий ва қўшимча ранглар ҳақида тушунчага эга бўлиш. Совуқ тусдаги бўёқлар хусусиятини ҳисобга олиб композицияни акс эттириш. Қўйилмага тушаётган ёруғлик кучини аниқлаш, рангларни тўғри ифодалаш. Натюрмортни матога тўғри жойлаштириш ва ранг билан ҳажмлиликни таъминлаган ҳолда акс эттириш. Ёруғликни ҳисобга олган ҳолда рангини топиш. ранглар орқали мойбўёқда ишни методик изчилликда яқунлаш

**19-мавзу. Ранглари бир-бирига қарама-қарши бўлган буюмлардан тузилган мураккаб мавзули натюрморт. (Ёруғликка қарши қўйилган)** Ёруғлик муҳитида буюмларнинг ҳажми ва рангини кўрсатиш. Буюмларнинг ҳажмини аниқлаш, унга рангда ишлов бериш. Рангасвирда фазовий ҳолатларни акс эттириш. Натюрмортни матога тўғри жойлаштириш ва ранг билан ҳажмлиликни таъминлаган ҳолда акс эттириш. Ёруғликни ҳисобга олган ҳолда рангини топиш. ранглар орқали мойбўёқда ишни методик изчилликда яқунлаш.

**20-мавзу. Тўқ фонда қиёфачи портретини бир хил рангда ишлаш (Гризайль).**

Ахроматик ранглар ҳақида тушунча. Бош тасвири ва фондаги ранг ва тус ўзгаришлари, оч-тўқлик даражаларини тўғри акс эттириш. Европа Уйғониш даври рассомларининг уч қатламли рангасвир ишлаш техникасини ўрганиш. Муҳит, ёруғлик манбаини тўғри акс эттириш. ишни яхлит бир тусга бўйсундирган ҳолда яқунлаш.

**21-мавзу. Рангли фонда қиёфачи портрети ранглавҳаси чекланган рангларда ишлаш.**

Инсон юз тузилиши хусусиятлари, ранг-тус муносабатларини ўрганиш. Қиёфачини ўрганиш, қисқа муддатли ранглавҳаларни бажариш ва матога конструктив қурилиши бўйича жойлаштириш. Нисбатларни аниқлаш ва моделни конструктив қуриш. Ёруғ-соя қонунларига амал қилган ҳолда вазифани ранглаш. Бош нисбатларини тўғри ифодалаб тасвирлаш

**22-мавзу. Аниқ анатомик тузилишга эга бўлган, характерли аёл ёки эркак қиёфачи портретини елка қисми билан ишлаш.**

Ёруғлик хусусиятларини эътиборга олиб. майда тафсилотларсиз, яхлит катта шаклнинг ранг ва тус муносабатларини тўғри акс эттирган ҳолда ҳажмли қилиб ифодалаш. Конструктив қурилиш орқали инсон тана аъзолари нисбатларини чизиқли конструктив ўрганиш. Кузатиб ҳолат характерини тез илғаб тасвирлаш малакаларини ўстириш. Инсон қиёфасини рангасвирда тасвирлашда методик изчилликка риоя қилиш

**23-мавзу. Миллий мато фонда аёл портрети ранглавҳасини қўли билан ишлаш,**

Замонавий рангасвир техникасида (аля-прима) одам юзи, қўли. кийимини ифода этишни ўрганиш. Тасвирлашнинг асосий қонун қоидалари. Перспектива, пластик анатомия, ёруғ соя муносабатлари, бир, миллий мато фондаги фигурадан ташкил этилган композициянинг ўзига хослиги ва тасвирлаш қонун қоидалари. Одам шаклини тасвирлашда конструктив тузилиш, пластик ҳолат, ҳажм, композиция асослари каби асосий қонун қоидаларини ўргатиш. Натуранинг характерли хусусиятларини очиб бериш. Қиёфани тасвирлашда конструктив анатомик тузилишни ҳисобга олиб унинг ҳолатини аниқлаш. Рангда композиция муаммоларини ҳал этиш.

**24-мавзу. Белигача яланғоч ҳолда ўтирган қиёфачи портрети ранглавҳасини ишлаш.**

Инсон гавдаси анатомик тузилиши. Портретни мазмунан бой.чуқур ғоявий воқеабанд мавзулар асосида тасвирлаш йўллари ўрганиш. Тасвирлашнинг асосий қонун қоидалари. Перспектива қонуниятлари, одам анатомияси, ёруғ соя муносабатлари, фигуранинг ўзига хос жиҳатлари ва тасвирлаш қонун қоидалари. Одам танасини тасвирлашда конструктив тузилиш, пластик ҳолат, ҳажм, композиция асослари каби асосий қонун қоидаларини ўргатиш. Натуранинг характерли хусусиятларини очиб бериш. Қиёфани тасвирлашда юз тузилишидаги нисбатлар ва

шакллар, уларни туслаш йўллари ўргатиш.

### **25-мавзу. Тик турган ҳолатдаги инсон қоматининг мураккаб ҳолатдаги тасвирини ишлаш**

Тасвирлашнинг асосий қонун қоидалари. Перспектив қисқариш, инсон анатомияси, ёруғ соя муносабатлари, кийимдаги бурмалар, композицияларнинг ўзига хослиги ва тасвирлаш қонун қоидалари. Одам шаклини тасвирлашда конструктив тузилиш, ҳажм, композиция асослари каби асосий қонун қоидаларини ўргатиш. Натуранинг характерли хусусиятларини очиб бериш. Қиёфани тасвирлашда конструктив анатомик тузилишни ҳисобга олиб унинг ҳолатини аниқлаш. Ўқув график вазифа бажаришда инсон юз тузилиши хусусиятларини очиб бериш

### **26-мавзу. Интерьерда икки ва ундан ортиқ киши иштирокида мураккаб композиция ишлаш (Тарихий мавзуда композиция ташкил этиш)**

Тасвирлашнинг асосий қонун қоидалари. Перспектива, пластик анатомия, ёруғ соя муносабатлари, бир, икки ва кўп фигуралардан ташкил этилган композицияларнинг ўзига хослиги ва тасвирлаш қонун қоидалари. Одам шаклини тасвирлашда конструктив тузилиш, пластик ҳолат, ҳажм, композиция асослари каби асосий қонун қоидаларини ўргатиш. Одам гавдасини методик босқичларда тўғри тасвирлаш. Натуранинг характерли хусусиятларини очиб бериш. Қиёфани тасвирлашда конструктив анатомик тузилишни ҳисобга олиб унинг ҳолатини аниқлаш. Ўқув график вазифа бажаришда инсон юз тузилиши хусусиятларини очиб бериш. Одам гавдасининг тузилиши ва мушакларининг конструктив анатомик жиҳатларини аниқлаб ранглаш.

Амалий машғулотлар маҳсус дастгоҳлар ва лобаратория буюмлари: геометрик жисмлар (Куб, шар, цилиндр, призма, конус), уй-рўзғор буюмлари (кўза, хум, чойнак, пиёла, лаган, самовар ва ҳоказолар.), гипс розеткалар, гипс бош намуналари, гипс бош, инсон бош суяги каби жиҳозлар билан жиҳозланган ўқув устахоналарда ўтказилиши зарур. Юқори курс учун қиёфачи таклиф этилиши ёки ҳайкаллар билан жиҳозланиши керак. Шунингдек мультимедиа қурилмалари билан жиҳозланган бир академик гуруҳга бир ёки икки профессор-ўқитувчи томонидан ташкил этилиши мақсадга мувофиқ. Машғулотлар фаол ва интерактив усуллар ёрдамида ўтилиши, мос равишда муносиб педагогик ва ахборот технологиялар қўлланилиши ҳар бир талабага индивидуал ёндошиб дарс ўтиш мақсадга мувофиқ.

#### **IV. Мустақил таълим ва мустақил ишлар**

Мустақил таълим учун тавсия этиладиган мавзулар:

1. Геометрик шакллардан натюрморт гризайлда
2. Гипс нақшли розетка иштирокида натюрмортнинг рангтасвири (гул барги ва кўза, мевалардан иборат натюрморт композицияси)
3. Мураккаб ҳолатдаги турли мато бурмалари билан гуллар иштирокида натюрморт
4. Уй-рўзғор буюмлари ва сабзавотлардан тузилган натюрмортнинг рангтасвири
5. Самовар, чойнак, паёла ва мевалардан ташкил топган мураккаб бўлмаган натюрморт.
6. Ҳайвон ва паррандаларнинг ранглавҳалари
7. Ҳайкалтарош Микеланжелонинг Давид хайкали боши бўлаклари билан натюрморт
8. Инсон бошини кесиб ишлаш усулида ранглавҳа (этюд) машқ қилиш
9. Оқ фонда гуллар ва мева-сабзавотларнинг қисқа муддатли ранглавҳасини бажариш.
10. Аниқ характерга эга бўлган бош намунасининг ранглавҳаси
11. Инсон қоматидан ранглавҳалар бажариш
12. Ўзига хос характерли хусусиятларга эга бўлган инсон портрети ранглавҳаси
13. Кекса инсон бошининг мураккаб ҳолатдаги портрети ранглавҳаси
14. Ёш бола портрети рангтасвири
15. Менинг замондошим портрети ранглавҳа
16. Автопортрет

	<p>17. Ўтирган ҳолатдаги инсон қомати композициясини тасвирлаш  18. Қишлоқ манзараси  19. Икки ёки уч киши иштирокида композиция  20. Бозорлар ранглавҳаси  21. Тоғ манзараси  22. Мавзули мураккаб натюрморт.</p> <p>Талаба мустақил таълимни бажариш учун дарслик ва ўқув қўлланмалар бўйича фан боблари ва мавзуларини ўрганиши; тарқатма материаллар бўйича амалий ишлар бажаришни ўрганиш; махсус адабиётлар бўйича фан бўлимлари ёки мавзулари устида ишлаш; талабанинг ўқув-ижодий ишларини бажариш билан боғлиқ бўлган мавзуларини чуқур ўрганиш; тавсия этилади.</p> <p>Мустақил таълим мавзулари бўйича талабалар А3 форматда, қоғоз, мато, акварель, мойбўёқ, гуашь бўёқларидан фойдаланиб вазифани ранглавҳаларини топширади.</p>
<p>3.</p>	<p><b>V. Фан ўқитилишининг натижалари (шаклланадиган компетенциялар)</b>  Фанни ўзлаштириш натижасида талаба:  «Рангтасвир» ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида талаба;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Ўқувчиларни тасвирий фаолиятга ўргатишнинг мазмуни ва хусусиятлари; <ul style="list-style-type: none"> <li>– тасвирий санъатга ўргатишнинг дидактик тамойиллари;</li> </ul> </li> <li>– тасвирий санъатга ўқитиш жараёнида рангтасвирнинг ишлаш мазмуни, метод ва технологиялари;</li> <li>– миллий ва жаҳон тасвирий санъат тарихига оид маълумотни билиш, тасвирий санъат тарихи ва назарияси, рангтасвир қонуниятлари, портрет характеристикасини ўрганиш.</li> <li>– рангтасвирни ўқитиш жараёнида ўқувчиларни эстетик жиҳатдан тарбиялаш;</li> <li>– оддий геометрик шакллардан бошлаб инсоннинг қоматини рангтасвирда тасвирлай олишгача;</li> <li>– тасвирий санъат асарларини яратишда ранглавҳанинг аҳамияти</li> <li>– машғулотларини ташкил этишда санъат асарларини таҳлил эта олиш;</li> <li>– махсус мактабгача таълим муассасаларида тасвирий фаолиятга ўргатиш</li> <li>– мактабларда тасвирий санъат дарслари учун ишланмалар тайёрлашни;</li> <li>– яхши ўзлаштирувчи ва иқтидорли ўқувчилар билан индивидуал дарслар олиб бориш;</li> <li>– тасвирий фаолиятга ўргатиш жараёнини таҳлил этиш;</li> <li>– ўқувчилар иждодий ишларини баҳолай олиш тўғрисида малакаларига эга бўлиши керак.</li> </ul>
<p>4.</p>	<p><b>VI. Таълим технологиялари ва методлари:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• интерфаол кейс-стадилар; (мантикий фиклаш, тезкор савол-жавоблар);</li> <li>• гуруҳларда ишлаш;</li> <li>• амалий машғулотлар</li> <li>• тақдимотларни қилиш;</li> <li>• индивидуал лойиҳалар;</li> <li>• жамоа бўлиб ишлаш ва ҳимоя қилиш учун лойиҳалар.</li> <li>• иждодий ишлар яратиш</li> </ul>
<p>5.</p>	<p><b>VII. Кредитларни олиш учун талаблар:</b>  Фанга оид назарий ва амалий тушунчаларни тўла ўзлаштириш, таҳлил натижаларини тўғри акс эттира олиш, ўрганилаётган жараёнлар ҳақида мустақил мушоҳада юритиш, иждод қилиш ва жорий, оралиқ назорат шаклларида берилган вазифа</p>

	ва топшириқларни бажариш, якуний назорат бўйича амалий ишни топшириш.
<b>6.</b>	<p><b>Асосий адабиётлар</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. С.Абдирасилов, Н.Толипов Рангасвир Дарслик. Тошкент. “Инновация-зиё”, 2019</li> <li>2. Халилов Р. :Живопись Издательство «Навруз» 2013</li> <li>3. Абдурахмонов Ғ.М Композиция асослари «Иқтисод-молия»,Тошкент, 2008.</li> </ol> <p><b>Қўшимча адабиётлар</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истикболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январ, № 11</li> <li>5. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017 йил</li> <li>6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш- юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017 йил</li> <li>7. Толипов Н., Абдирасилов С., Орипова Н. Рангасвир (1-қисм). Тошкент, 2002. ТДПУ</li> <li>8. Толипов Н., Абдирасилов С., Орипова Н. Рангасвир (2-қисм). Ўқув қўлланма, Тошкент., 2003. ТДПУ</li> <li>9. Абдирасилов С.,Толипов Н. “Рангасвир” Ўқув қўлланма, Тошкент, 2005. "Билим"</li> <li>10. Султонов Х. “Рангасвир” (грязайлда ишлаш) методик қўлланма ТДПУ ризографида-2014</li> <li>11. С.Абдирасилов, С.Маҳкамова, Н.Исахожиева Тасвирий санъат тўғараги Тошкент ШАРҚ 2012</li> <li>12. С.Абдирасилов, С.Маҳкамова Истеъдод Тошкент методик қўлланма ТДПУ ризографида 2014</li> <li>13. С.Абдирасилов, Н.Толипов Рангасвир “Билим” ЎМКХТМ 2005</li> <li>14. В.Barber “Full course of the drawing”, Barselona-2014.</li> </ol> <p><b>Ахборот манбаалари</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>15. <a href="http://www.tdpu.uz">www.tdpu.uz</a> – Низомий номидаги ТДПУ портали</li> <li>16. <a href="http://www.ZiyoNet.Uz">www.ZiyoNet.Uz</a> – Ўзбекистон Зиёнет кутубхонаси базаси</li> <li>17. <a href="http://www.edu.uz">www.edu.uz</a> – Ўзбекистон Республикаси таълим портали</li> </ol>
<b>7.</b>	<p>Фан дастури Олий ва профессионал таълим таълим йўналишлари бўйича Ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 202__ йил “__” _____ даги _____ -сонли баённомаси билан маъқулланган.</p> <p>Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 202__ йил “__” _____ даги _____ - сонли буйруғи билан маъқулланган фан дастурларини таянч олий таълим муассасаси томонидан тасдиқлашга розилик берилган.</p>
<b>8.</b>	<p><b>Фан/модуль учун масъуллар:</b></p> <p>Р.Ш.Халилов - ТДПУ “Тасвирий санъат ва уни ўқитиш методикаси ” кафедраси доценти</p> <p>С.Б.Маҳкамова - ТДПУ “Тасвирий санъат ва уни ўқитиш методикаси ” кафедраси катта ўқитувчиси.</p> <p>Х.Э.Султонов – ЧДПИ “Тасвирий санъат ва уни ўқитиш методикаси ” кафедраси доценти</p>
<b>9.</b>	<p><b>Такризчилар:</b></p> <p>О.Солихов –К.Бехзод номидаги МРДИ, ўқув ва тарбия ишлари бўйича проректор</p> <p>У.Нуртаев – Тошкент архитектура –қурилиш касб-хунар коллежи директори</p>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**RANGTASVIR**

**ISHCHI O‘QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	100000 – Gumanitar soha
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	110000 – Pedagogika
<b>Ta‘lim yo‘nalishi:</b>	5110800 – Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi
<b>O‘quv soatlari hajmi:</b>	<b>660 soat</b>
<b>Amaliy</b>	320 (1-semestr 60 s., 2-semestr 60 s., 3-semestr 60 s., 4-semestr 60 s., 5-semestr 44 s., 6-semestr 36 s.)
<b>Mustaqil ta‘lim</b>	340 (1-semestr 64 s., 2-semestr 64 s., 3-semestr 64 s., 4-semestr 64 s., 5-semestr 46 s., 6-semestr 38 s.)

**Guliston-2020**



Mazkur fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 14 avgustdagi 418-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Rangtasvir" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Mazkur ishchi fan dasturi "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasining 2020 yil "27" 08 dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (01-sonli bayonnoma).

Mazkur ishchi fan dasturi "San'atshunoslik" fakulteti Kengashining 2020 yil "28" 08 dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (1-sonli bayonnoma).

Mazkur ishchi fan dasturi Guliston davlat universiteti Kengashining 2020 yil "29" 08 dagi 01 -sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchi:**


N.Jumaboyev GulDU "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasini o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

A.Babadjanov GulDU "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasini katta o'qituvchisi

B.Usmanov GulDU "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasini o'qituvchisi

A.Berikbayev GulDU "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasini o'qituvchisi

"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasini mudiri:  O. Inoyatov

San'atshunoslik fakulteti dekani:  A. Babadjanov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i  I. Xudoyberdiyev

<b>Fan/modul kodi</b> RangTM30022		<b>O'quv yili</b> 2020-2021	<b>Semestr</b> 1-6	<b>ECTS - Kreditlar</b> 22	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	<b>Rangtasvir</b>	320	340	660	

### I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – rangtasvir barcha tasviriy san'at turlarining asosi sifatida kelajakda tasviriy san'at o'qituvchisini rangtasvir fani nazariyasi va amaliy ko'nikmalari bilan qurollantirish, ijodiy qobiliyatini o'stirish, tasviriy san'atga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, hamda pedagogik faoliyatga puxta tayyorlashdan iboratdir.

Fanning vazifasi – bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini badiiy jihatdan tarbiyalash, ularning badiiy didlarini yuksaltirish, tasviriy san'at asarlari bilan chuqur tanishtirish, ularni nafosat borasidagi fikr va mulohazalarini yuksaltirish, tasviriy san'at asarlarini ko'rish va tushunish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Shuningdek, talabalarga, bo'lajak rassom-pedagoglarga ko'rib-kuzatib, tahlil qilib to'g'ri tasvirlash, atrof-muhitni, borliqni idrok etish, rang sezish, rangtasvir asarlarini yaratish malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Realistik rangtasvir ishlash san'ati borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

### II. Asosiy amaliy qism (amaliy mashg'ulotlari)

#### II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

##### 1-qism (1-semestr). Rangtasvir

**1-mavzu. Rangtasvir haqida tushuncha. Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari. Xolis fonda 2-3 geometrik jismdan tuzilgan sodda natyurmort ishlash (Grizayl).**

Rangtasvir haqida tushuncha. Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari. Shaklni konstruktiv tahlil qilish, rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish. Grizayl texnikasi. Axromatik va xromatik ranglarni o'rganish. Natyurmortda buyumlar shakli. hajmi, yorug'lik xususiyatlarini bir hil rangda to'g'ri aks ettirish. (Akvarel).

**2-mavzu. Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish (Akvarel).**

